



SMART PLATFORMALARGA ASOSLANGAN ONLAYN SAVDONI O‘RNI VA AHAMIYATI

Jumaniyozova Muqaddas Yuldashevna

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Raqamli iqtisodiyot kafedrası
dotsenti**

Annotatsiya

Ushbu maqola uchinchi tomon sotuvchilari bilan bir qatorda o'z mahsulotlarini sotadigan raqamli platforma iste'molchilarga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatish shartlarini o'rganadi. Xususan, platformadagi narxlarning pasayishiga turli xil bozor tuzilmalari qanday sabab bo'lishi mumkinligiga e'tibor qaratilgan, onlayn savdoda raqamli platformalardan foydalanish modellari tahlil qilingan, smat platformalari o'rtasidagi farqlar va ularning savdo sohasida istiqbolli joriy etilishi ko'rsatilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются условия, при которых цифровая платформа, продающая собственные продукты вместе с продукцией сторонних продавцов, оказывает влияние на потребителей как в положительном, так и в отрицательном аспектах. В частности, внимание сосредоточено на том, как снижение цен на платформе может быть обусловлено различными рыночными структурами, анализируются модели применения цифровых платформ в онлайн торговле, приводятся различия smat платформы и перспективное внедрение их в сектор торговли.

Abstract

This article examines the conditions under which a digital platform that sells its own products together with those of third-party sellers has an impact on consumers in both positive and negative aspects. In particular, it focuses on how price reductions on the platform can be caused by different market structures, analyzes the application models of digital platforms in online trading, provides differences between smat platforms and their prospective implementation in the trading sector.

Kalit so'zlar

platforma, smart platformalar, savdo, on-layn savdo, instrumental raqamli platforma, Amazon, ZoodMall, Sello, Uzmarket, agregatlar, marketpleys.

Ключевые слова

платформа, умные платформы, торговля, онлайн-торговля, инструментальная цифровая платформа, Amazon, ZoodMall, Sello, Uzmarket, инструментальная цифровая платформа, агрегаты, маркетплей.

Keywords

platform, smart platform, trading, online trading, instrumental digital platform, Amazon, ZoodMall, Sello, Uzmarket, instrumental digital platform, aggregate, marketplace.

Kirish

Raqamli platformalar zamonaviy biznesning ajralmas qismiga aylandi va yning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Raqamli transformasiya va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi davrida kompaniyalar raqobatbardoshlik va barqaror o'sishni ta'minlash uchun raqamli platformalardan foydalanish muhimligini tobora ko'proq anglab etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bugungi kunda ishlab chiqarish sohasida jarayonlarning moslashuvchanligini oshirish va ishlab chiqarish usullarini innovatsiya qilish uchun keng qo'llaniladi [3]. Raqamli platformalar kompaniyalarga o'z mahsulotlari va xizmatlarini marketingini ilgari surishda yangi biznes modellarni ishlab chiqish imkoniyatini beradi, mijozlar tajribasini boshqarish, operatsion samaradorlikni oshirish, tahlil qilish va qaror qabul qilish imkoniyatlarini ham beradi.

Smart platformalar - bu biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish uchun sun'iy intellekt (AI), mashinani o'rganish, katta ma'lumotlar va tahlillar kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanadigan raqamli tizimlar. Ular kompaniyalarga o'z faoliyatini samarali boshqarishda, mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilashda va ongli qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Aqlli platformalarni yaratishga imkon beruvchi asosiy texnologiyalar bulutli saqlash, sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlarni tahlil qilish funksiyalarini o'z ichiga oladi [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida belgilab berilgan maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2024 yilda 14 oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-358-sonli qarori asosida Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish nazarda tutilgan bo'lib hozirgi kunda smart platformalardan samarali foydalanish dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi [1,2].

Adabiyotlar tahlili

Jahonda raqamli platformalarini rivojlanish tendensiyasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda raqamli smart platformalarga doir ilmiy izlanishlar, ularning muammolari va afzalliklari, iqtisodiyot sektorida, elektron tijoratda samarali foydalanish karatilganligi ko'pchilik iqtisodchi olimlar tomonidan e'tirof etilgan.

Xorijiy amaliyotni tahlil qilganda Lorena Bourg ilmiy ishlarida aqlli chakana savdoda xarid qilish tajribasini oshirishda innovatsion raqamli xizmatlarni taqdim etishda Smartbuy ekotizimlarida on layn savdolarni samaradorligi o'rganilgan [5].


Rossiyalik iqtisodchi olimlar T.N.Yudina, I.Z.Gelisxanov, N.N.Mixaylenkolarning fikricha, platformalashtirish jarayonlari ko'proq ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat turlarida "bir-birini to'ldiruvchi" texnologiyalar tufayli rivojlanmoqda [6]. N.N.Mixaylenko o'zining ilmiy izlanishlarida raqamli platformalar biznesda ko'llash usullari va amaliy masalalar bilan keltirgan [7].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolaning metodologiyasida umumlashtirish, guruhlash, qiyosiy tahlil va nazariy izohlash usullari qo'llaniladi. Bundan tashqari, maqolaning ilmiy asosini xalqaro standartlar va me'yoriy hujjatlar, mamlakatimiz va xorijiy ilmiy nashrlarda olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar ma'lumotlari tashkil etadi.

Tahlil va natijalar

Jahon amaliyotida raqamli platformalarning har xil turlaridan qo'llaniladi. Smart platformalarni turlarga bo'lishdan oldin biz ularni nisbiy holda, foydalanish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda instrumental, infratuzilma, amaliy va sanoatli raqamli platformalarga ajratish mumkin.



1-rasm. Smart platformalarning arxitekturasi

1-rasmdan ko'rinib turibdiki aqlli raqamli platformalar - sun'iy intellekt (SI), mashinani o'rganish va katta ma'lumotlarni tahlil qilish elementlarini o'z ichiga oladi. Ushbu platformalar foydalanuvchilar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida moslashish va o'rganish imkoniyatiga ega. Ular prognozlar qilish, jarayonlarni optimallashtirish va aniqlangan qonuniyatlar asosida avtomatik ravishda qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Masalan, bunday platformalar xaridorlarning xulq-atvorini tahlil qilib, marketing strategiyalarini moslashtirish yoki bozor o'zgarishlarini oldindan aytib berish imkoniyatiga ega.

Aqlli raqamli platformalar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

Sun'iy intellekt (AI)-foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qiladi va bashorat qiladi.

Yangi ma'lumotlarga moslashadigan va jarayonlarni optimallashtiradigan mashinani o'rganish.

Blockchain tranzaksiyalarning xavfsizligi va shaffofligini oshirish uchun ishlatiladi.

Aqlli raqamli platformalar avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilish, ma'lumotlarga asoslangan moslashish va mashinani o'rganish kabi aqlli xususiyatlarni taklif etadi.

1-jadval

Savdoning turli sohalarida faol foydalaniladigan Smart platformalar turlarining [5].

| Smart platformalar nomi | Tarifi |
|----------------------------------|--|
| Shopify | Platforma sotuvchilarga xaridorlar uchun takliflarni shaxsiylashtirish, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash, xaridorlarning afzalliklarini bashorat qilish va marketing kampaniyalarini avtomatlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, u dinamik narxlash va inventarni optimallashtirish uchun vositalarni taklif etadi. |
| TradeGecko (QuickBooks Commerce) | aqlli inventarizatsiya va logistikani boshqarish platformasidir. AI va ma'lumotlar tahlilidan foydalanib, u kompaniyalarga talabni bashorat qilish, omborlarni boshqarish, etkazib berishni optimallashtirish va inventar ehtiyojlarini prognoz qilishda yordam beradi. |
| MetaTrader 4/5 | avtomatlashtirilgan savdo uchun eng mashhur platformalardan biridir. U ma'lumotlarni tahlil qilish va belgilangan strategiyalar asosida savdolarini amalga oshirish uchun mashinani o'rganishdan foydalanadigan maslahatchilar yordamida algoritmik savdodan foydalanadi. |
| eToro | bu bozor tendentsiyalarini tavsiya qilish va bashorat qilish uchun AIdan foydalanadigan aktivlar savdosi platformasi. U noyob "savdo nusxasi" funksiyasini taklif etadi, bunda foydalanuvchilar muvaffaqiyatli savdo strategiyalari tahlili asosida tajribali treyderlarning savdolarini avtomatik ravishda takrorlashlari mumkin. |
| Amazon | xaridlarni shaxsiylashtirish, talabni prognoz qilish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish uchun AI va katta ma'lumotlar tahlilidan faol foydalanmoqda. Platforma mahsulotlarni tavsiya qilish uchun foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qiladi va inventarizatsiyani optimallashtirish va ta'minot zanjirlarini boshqarish uchun bashoratli algoritmlardan foydalanadi. |
| Stitch Labs | Ko'p tarmoqli elektron tijoratni boshqarish uchun aqlli platforma. Bu talabni prognoz qilish va inventarizatsiyani boshqarish va narxlash jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mashinani o'rganishdan foydalangan holda turli savdo kanallari (onlayn do'konlar, chakana savdo va boshqalar) ma'lumotlarini birlashtirishga yordam beradi. |
| Zebra Medical Vision | tibbiy ma'lumotlarni, jumladan, tasvirlar va tibbiy hisobotlarni tahlil qilish, sog'liqni saqlash va tibbiy chakana mijozlarga foydali bo'lishi |

| | |
|-------------------|--|
| | mumkin bo'lgan mahsulot yoki xizmatlarni bashorat qilish va tavsiya qilish uchun sun'iy intellektdan foydalanadi. |
| IBM Watson | chakana sotuvchilar uchun talabni bashorat qilish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash va ta'minot zanjirlarini optimallashtirish uchun sun'iy intellektdan foydalanadigan yechimlarni taqdim etadi. Platforma korxonalariga ko'proq asosli qarorlar qabul qilishda yordam berish uchun mijozlarning fikr-mulohazalari va bozor tendentsiyalarini o'z ichiga olgan katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qiladi. |
| BigCommerce | do'kon ish faoliyatini yaxshilash uchun sun'iy intellektni birlashtirgan elektron tijorat yechimlarini, shuningdek, kontent va reklamani shaxsiylashtirish, bashoratli tahlillardan foydalanish va inventar boshqaruvini avtomatlashtirish vositalarini taqdim etadi. |
| Oracle NetSuite | bu moliyaviy, ta'minot zanjiri, inventarizatsiya va savdo boshqaruvini o'z ichiga olgan biznes jarayonlarini avtomatlashtirish uchun bulutli platforma. U ma'lumotlarni tahlil qilish va moliyaviy va tovar tendentsiyalarini prognoz qilish uchun sun'iy intellektdan foydalanadi. |

1-jadvalda keltirilgan barcha smart platformalar sun'iy intellektdan foydalanishadi. Ushbu platformalar, sun'iy intellektning imkoniyatlaridan samarali foydalanib, turli biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish, foydalanuvchi xulq-atvorini prognozlash va marketing strategiyalarini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt yordamida platformalar foydalanuvchilarning ehtiyojlarini va bozor talablarini real vaqt rejimida tahlil qilib, eng optimal qarorlarni qabul qilish imkoniyatiga ega. Bu, o'z navbatida, tashkilotlarga samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va foydalanuvchilarga yanada moslashtirilgan xizmatlar taklif etish imkonini beradi.

Jahon tajribasini ko'rib chiqib tahlil qilsak, Amazon ta'minot zanjiri sun'iy intellekt yordamida 75 foizga tezlashmoqda Amazonning rejalashtirish va marshrutlash texnologiyasi vitse-prezidenti Skot Xemiltonning aytishicha, Amazon butun dunyo bo'ylab mijozlarga tezroq yetkazib berishni ta'minlash uchun sun'iy intellektdan foydalanadi. Misol uchun, 2023 yilgi Kiber Dushanba savdolarida Amazon 400 milliondan ortiq mahsulotga kunlik talabni bashorat qilish va tarixiy ma'lumotlar zahirasi asosida buyurtmalar qayerdan kelishini bashorat qilish uchun AI tizimlaridan foydalangan.

Yetkazib berishni tashkil etuvchi moslashtirilgan inventarizatsiyani boshqarish tizimi orqali Amazon quyidagilarga muvaffaq bo'ldi:

Inson mehnati va xodimlarning shikastlanishini 15% ga kamaytirdi.


Ishlov berish vaqtini 25% ga qisqartirdi.

Birgina 2020 yilda Amazon transport va logistika xarajatlarini 1,6 milliard dollarga tejash va CO2 emissiyasini 1 million tonna kamaytirish uchun mashinani o'rganish va sun'iy intellektdan foydalanishga muvaffaq bo'ldi.

Operatsion samaradorlikni, ishchilar unumdorligini va qarorlar qabul qilishni yaxshilash uchun katta salohiyatga ega bo'lgan so'rovda qatnashgan ish beruvchilar AI ko'nikmalari va tajribasiga ega bo'lgan xodimlarga yuqori maosh to'lashga tayyor. Shunisi e'tiborga loyiqki, ish beruvchilar AI ko'nikmalariga ega bo'lgan IT xodimlari uchun o'rtacha 47% ko'proq pul to'lashga tayyor bo'lsa-da, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ish haqi to'lovlari bo'limlar bo'ylab tarqaladi. Ish beruvchilar AI ko'nikmalariga ega bo'lgan ishchilarga savdo va marketing sohasida mukofot to'lashga tayyor ekanliklarini aytishdi (43% yuqori ish haqi); moliya (42%); biznes operatsiyalari (41%); huquqiy, tartibga solish va muvofiqlik (37%); va inson resurslari (35%).

Kompaniya ma'lumotlariga ko'ra, barcha robotlar va ishchilar bilan Amazon 2024 yilning birinchi choragida o'sha kuni yoki ertasi kuni 2 milliarddan ortiq mahsulotni etkazib berdi.

Amazon har doim qanday inventarning qancha, qachon va qayerda kerakligini taxmin qilish uchun algoritmlardan foydalangan. Kompaniyaning ta'kidlashicha, u ilgari sotilmagan narsalarni qayerga joylashtirishni eng yaxshi bashorat qilish uchun generativ AI dan foydalanmoqda.



2-rasm. 2024 yil yanvar holatiga ko'ra sun'iy intellektdan (AI) foydalanadigan Amazon sotuvchilari va brendlarining ulushi

2-rasmdan ko'rish mumkinki, **Amazon** smart platformasida sun'iy intellektdan foydalanish orqali eng katta ko'rsatkich ro'yxatlarini yozish va optimallashtirish tegishli bo'lib, bu jarayonning 34 foizini tashkil etadi. Ushbu texnologiya, asosan, foydalanuvchi xulq-atvorini tahlil qilish va mahsulot takliflarini optimallashtirishda qo'llaniladi. Shuningdek, ularning yana 14 foizi marketing va ijtimoiy media kontentini qo'lda ishlab chiqarishdan sun'iy intellektga asoslangan ishlab chiqarishga o'tganini ko'rish mumkin. Bu o'zgarish, asosan, kontent yaratish jarayonlarini tezlashtirish, shuningdek, mijozlar bilan samarali aloqalar o'rnatishga qaratilgan. Sun'iy intellektning bu kabi innovatsion ishlatilishi, Amazon platformasining samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shmoqda.

Хорижий тажрибадан келиб чиққан ҳолда шуни айтишимиз мумкинки, смарт платформаларини он-лайн савдо платформаларига жорий этилиши иқтисодий самарадорликни анча оширади.

Mamlakatimizda ham foydalanuvchi tajribasini yaxshilash va savdo jarayonlarini optimallashtirish uchun zamonaviy texnologiyalardan, jumladan, sun'iy intellektdan (AI) foydalanadigan bir nechta aqlli onlayn savdo platformalari faoliyat yuritmoqda. Ulardan ba'zilari, masalan, Uzum Market va ZoodMall platformalari, O'zbekistondagi elektron tijoratni yangi bosqichga olib chiqishga katta hissa qo'shmoqda. Ushbu platformalar, shaxsiylashtirilgan takliflar, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash va logistik jarayonlarni optimallashtirish uchun ilg'or algoritmlardan foydalanmoqda. Kelajakda, mijozlar ehtiyojlarini aniq bashorat qilish va marketingni yanada samarali amalga oshirish uchun sun'iy intellektning yangi elementlarini joriy etish rejalashtirilgan.

Shuningdek, Sello marketplace kabi elektron tijorat platformalarida ham sun'iy intellekt (SI) tizimlari ko'plab jarayonlarni optimallashtirish va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash maqsadida keng qo'llanilmoqda. Bunday platformalar, nafaqat foydalanuvchi ehtiyojlarini tahlil qilish, balki tovarlar va xizmatlar bo'yicha eng yaxshi takliflarni yaratish, shuningdek, narxlarni dinamik tarzda o'zgartirish orqali onlayn savdoni yangi darajaga ko'tarish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt, onlayn savdo platformalarida nafaqat tijorat jarayonlarini avtomatlashtirish, balki foydalanuvchilarga qulaylik yaratish, ularning xarid qilish xulq-atvorini tahlil qilish va aniq prognozlar qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Bunday innovatsiyalar, O'zbekistonning elektron tijorat sohasida raqobatbardoshligini oshirishga va global bozorda mustahkam o'rin egallashga yordam beradi.

Xulosa

Hozirgi kunda onlayn savdo sohasida yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlarning jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Smart platformalarning onlayn savdoda qo'llanilishi esa savdo jarayonlarini sezilarli darajada samarali va tejamkor qiladi. Ularning foydalanuvchilarga qulaylik yaratish, shuningdek, bizneslar uchun keng ko'lamlı marketing va tahlil imkoniyatlarini taqdim etishi bu tizimlarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Smart platformalar yordamida xaridorga individual yondashuvni amalga oshirish, mahsulotlar va xizmatlarni maksimal darajada moslashtirish imkoniyatlari yaratildi. Bundan tashqari, xarajatlar va vaqtni optimallashtirish, shuningdek, xarid qilish jarayonining tezligi va sifatini yaxshilash kabi omillar onlayn savdoning samaradorligini oshiradi. Platformalarning avtomatik tahlil qilish va ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilish kabi imkoniyatlari, savdo strategiyalarini to'g'ri va samarali yo'naltirishda katta rol o'ynaydi.

Shuningdek, bu texnologiyalarning rivojlanishi kichik va o'rta bizneslarni global miqyosda raqobatbardosh bo'lishiga yordam beradi. Ular o'zining xizmat va mahsulotlarini yanada kengroq auditoriyaga taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday innovatsiyalarni joriy etish, uzoq muddatda bizneslar uchun yuqori daromad va o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, smart platformalarining onlayn savdoga ta'siri beqiyos bo'lib, ular nafaqat onlayn savdolarni yanada rivojlantirishga yordam beradi, balki bozorda raqobatbardoshlikni oshiradi va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Shu sababli, bu platformalarni samarali foydalanish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish va doimiy ravishda yangilanishlar kiritish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 14 oktabr 2024 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-358 -sonli qarori
2. “Raqamli O‘zbekiston -2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 05 oktyabr 2020 yildagi PF-6079-sonli O‘zbekiston respublikasi Prezidentining Farmoni.
3. Hong-Seok Park, Riskiy Ayu Febriani. (2019). Modelling a Platform for Smart Manufacturing System. 29th Internatinal Conference on Flexible Autimation and Intelligent Manufacturing (FAIM 2019), June 24-28, 2019, Limerik, Ireland.
4. T. N. Wong, C. W. Leung, K. L. Mak, and R. Y. K. Fung, Dynamic Shopfloor Scheduling in Multi-agent Manufacturing Systems. International Journal of Expert Systems with Applications, 31 (2006): 486–494
5. Lorena Bourg · Thomas Chatzidimitris · Ioannis Chatzigiannakis · Damianos Gavalas · Kalliopi Giannakopoulou · Vlasios Kasapakis · Charalampos Konstantopoulos · Damianos Kypriadis · Grammati Pantziou· Christos Zaroliagis. (2021) Enhancing shopping experiences in smart retailing. Journal of Ambient Intelligence and Humanized Computing (2023) 14:15705–15723 <https://doi.org/10.1007/s12652-020-02774-6>.
6. Dufva, M., Koivisto, R., Ilmola-Sheppard, L., and Junno, S. (2017), “Anticipating Alternative Futures for the Platform Economy”, Technology Innovation Management Review, Vol. 7, No. 9, pp. 6-16.
7. Ruggieri, R., Savastano, M., Scalingi, A., Bala, D., and D’Ascenzo, F. (2018), “The impact of Digital Platforms on Business Models: an empirical investigation on innovative start-ups”, Management & Marketing. Challenges for the Knowledge Society, Vol., 13, No 4, pp. 1210-1225. DOI: 10.2478/mmcks-2018-0032.
8. Boburjon Vafoev, Hamdam Homidov, and Lazizbek Ablazov. 2023. ECONOMETRIC MODELING OF PANEL DATA COLLECTED BASED ON DRONE TECHNOLOGIES. In Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (ICFNDS '22). Association for Computing Machinery, New York, NY, USA, 343–354. <https://doi.org/10.1145/3584202.3584252>

9. Rakhmon Kurvantaev, Nodira Khakimova, Bobirjon Vafoev. Chemical properties of Zarafshon lower and middle flow soils E3S Web of Conf. 389 04015 (2023). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338904015>

10. Jumaniyazova Mukaddas Yuldashevna. (2022). Models And Problems Of Using Digital Platforms In Online Trading. World Bulletin of Public Health,7,36-38. Retrieved from <https://www.scholarexpress.net/index.php/wbph/article/view/533>.

11. Jeronimo Carballo, Marisol Rodriguez Chatruc, Catalina Salas Santa, Christian Volpe Martincus. Online business platforms and international trade. Journal of International Economics. 137 (2022) 103599.

12. Юлдашвена, Д. М. (2024). Экономические Модели Использования Цифровых Платформ В Он Лайн Торговле. Miasto Przyszłości, 47, 811–818. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/3247>

13. Jumaniyazova, M., Avalova, G. Model digital platforms of the electronic market of agricultural products. International journal of early childhood special education. Volume 14, Issue 2, pp. 2428-2434. DOI 10.9756/INT-JECSE/V14I2.227. <https://www.webofscience.com/wos/woscc/full-record/WOS:000806030700034>

14. Мукаддас Джуманиязова. Технология использования цифровых платформ в управление сельского хозяйства Узбекистана. «International Conference Proceedings on "Investments and entrepreneurship: challenges and prospects"». 2019. т.1 май 134-139 стр.

15. St. Petersburg Polytechnic University Journal of Engineering Science and Technology. 10 (1). (in Russian). doi: 10.18721/JE.10101.